

O'ZBEKISTON SHAROITIDA RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALARI BILAN TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI

*Abdusalilova Diyora Hamza qizi¹, Gaybullayeva Parvina Baxtiyorovna², Aslamova Sevarabonu
Alisherovna³, Qarshiboyev Ulug'bek Sherali o'g'li⁴*

*^{1,2,3,4} Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti "Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish
insituti talabasi*

*E-mail: ¹abdusalilovadiyora1@gmail.com, ²p53330014@gmail.com, ³aslamovasevara08@gmail.com,
⁴sheraliyevich006@gmail.com*

Received: 2026 10, January

Accepted: 2026 14, February

Published: 2026 17, April

Abstract: Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli ta'lim platformalarining joriy etilishi va ularning zamonaviy ta'limdagi o'rni, shuningdek, mamlakat iqtisodiy o'sishiga ko'rsatayotgan ta'siri keng yoritilgan. Tadqiqot davomida ta'limni raqamlashtirish jarayonida yuzaga kelayotgan hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar, hamda ayrim hududlarda raqamli ta'lim imkoniyatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi muammolari ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, bu nomutanosibliklarning iqtisodiy oqibatlarini ham tahlil qilingan. Maqolada, shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar o'rganilib, ularning amaliy ahamiyati ochib berilgan. Yakunda tadqiqot asosida muhim xulosalar chiqarilib, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Keywords: Raqamli Ta'lim Platformalari, Ta'limning Ommabopligi, Zamonaviy Mehnat Bozori, Iqtisodiyotning Raqamli Transformatsiyasi.

INTRODUCTION (KIRISH)

Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish davrida ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ta'lim jarayonida yangi yondashuvlar paydo bo'ldi [1]. Shular jumlasidan raqamli ta'lim platformalari ta'lim sifatini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim rol o'ynamoqda [2].

So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. An'anaviy sinf xonalariga asoslangan ta'lim shakli bilan bir qatorda raqamli ta'lim platformalari keng ommalashib bormoqda [3].

Bugungi kunda bu platformalar bilim olish, malaka oshirish va kasbiy rivojlanishning muhim vositasiga aylangan. Raqamli ta'lim platformalari internet tarmog'i orqali ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv materiallarini yetkazish, bilimlarni baholash va muloqotni ta'minlaydigan onlayn tizimlardir. Ushbu platformalar kompyuter, planshet yoki smartfon orqali foydalanish imkonini beradi [4]. Raqamli ta'lim platformalarining eng muhim jihatlaridan biri ta'limning ommabopligi va ochiqligini ta'minlashidir. Ushbu platformalar orqali turli yoshdagi va turli ijtimoiy qatlam vakillari bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Birinchidan, raqamli ta'lim ta'limga teng kirish imkonini yaratadi [5]. Chekka hududlarda yashovchi, jismoniy imkoniyati cheklangan yoki moddiy sharoiti past bo'lgan shaxslar ham internet orqali sifatli ta'lim resurslaridan foydalanishi mumkin. Ikkinchidan, raqamli platformalar uzluksiz ta'lim tamoyilini qo'llab-quvvatlaydi. Inson hayoti davomida malakasini oshirib borishi, yangi kasb va ko'nikmalarni egallashi, jamiyatda bilimli va raqobatbardosh kadrlar sonining ortishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, raqamli ta'lim platformalari ijtimoiy faollik va muloqotni rivojlantiradi. Forumlar, onlayn muhokamalar va virtual jamoalar orqali o'quvchilar tajriba almashadi, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi [6].

Adabiyotlar tahlili

Raqamli ta'lim platformalari iqtisodiy rivojlanishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Avvalo, ular malakali kadrlar tayyorlash jarayonini tezlashtiradi. Zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan IT, raqamli savodxonlik, muhandislik va biznes ko'nikmalarini qisqa muddatda o'rgatish imkoniyati mavjud. Shu bilan birgalikda, ta'lim xarajatlari kamayadi [7]. An'anaviy ta'limda bino, transport, qog'oz va boshqa moddiy resurslarga ketadigan xarajatlar raqamli ta'lim orqali qisqaradi [8]. Bu esa davlat va fuqarolar uchun iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Undan tashqari, raqamli ta'lim ishsizlik darajasini kamaytirishga yordam beradi. Onlayn kurslar orqali yangi kasblarni o'rganish natijasida aholi bandligi oshadi, ayniqsa yoshlar va ayollar uchun masofaviy ishlash imkoniyatlari kengayadi [9].

Bugungi kunda raqamli ta'lim platformalari mehnat bozori bilan bevosita bog'liq. Ish beruvchilar doimiy ravishda yangilanib borayotgan bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni talab qilmoqda [10]. Raqamli ta'lim platformalari esa bu ehtiyojni tezkor va samarali qondiradi. Shuningdek, startaplar, frilanserlik va masofaviy ish shakllarining rivojlanishi raqamli ta'lim orqali shakllanayotgan bilim va malakalar bilan chambarchas bog'liq [11].

O'zbekistonda raqamli ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida elektron platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari va onlayn kurslar joriy etilmoqda. Bu jarayon kadrlar salohiyatini oshirish, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini ta'minlashga xizmat qilmoqda [12].

METHODS (METODOLOGIYA)

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston sharoitida raqamli ta'lim platformalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg'un holda ishlatildi.

Avvalo, ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, raqamli ta'limning nazariy asoslari o'rganildi. Shu bilan birga, taqqoslash (comparative analysis) usuli orqali rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bilan O'zbekiston holati solishtirildi.

Empirik tahlil doirasida statistik ma'lumotlar, xususan, internet qamrovi, mobil aloqa va raqamli xizmatlar ko'rsatkichlari o'rganilib, ularning ta'lim va iqtisodiyotga ta'siri baholandi. Dinamik tahlil usuli yordamida 2018–2025-yillar oralig'idagi o'zgarishlar izchil ravishda tahlil qilindi.

Bundan tashqari, tizimli yondashuv asosida raqamli ta'lim platformalarining ijtimoiy (ta'limga kirish imkoniyati, tenglik) va iqtisodiy (bandlik, mehnat bozori, samaradorlik) jihatlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari umumlashtirilib, xulosalar chiqarildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

RESULTS AND DISCUSSION (NATIJALAR VA MUHOKAMA)

O'zbekistonda 2020-yilni "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinishi yurtimizda nafaqat ta'limni balki, iqtisodiyotning ham raqamlashtirilishiga katta ta'sir qildi. 2020-yilda raqamli strategiya va infratuzilma boshlab yuborilgach, keyingi 5 yil ichida internetdan foydalanish darajasi keskin o'sdi va bugungi kunda onlayn xizmatlar, IT bozor va raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma sezilarli darajada kengaydi [13]. Quyidagi jadval raqamli statistik ma'lumotlar bilan to'ldirilgan jadval ya'ni O'zbekistonning raqamli transformatsiyasi tendensiyasini 2018–2025 yillar oralig'idagi ma'lumotlarni jamlaydi.

1-jadval. O'zbekiston - Raqamli Indikatorlar Statistika Jadvali (2018–2025).

Indikatorlar / Yillar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Internet foydalanuvchilar soni (mln)	-	-	18.34	21.3	24.3	26.0	29.5	33.1
Internet qamrovi (% aholi)	40.4 %	48.8 %	55 %	76.6 %	83.9 %	89 %	93.3 %	94.2 %
Mobil internet abonentlar ulushi (%)	-	-	91.3 % (mobil internet abonentlar ulushi)	-	-	50.1 %	-	-
Mobil aloqa obunachilari (abonent/100)	71.74	101.26	99.41	102.41	105.47	106.88	-	-

Berilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, 2018-yilda mamlakatimizda internet qamrovi atiga 40% ni tashkil etgan. 2020-yilgan kelib esa 55% ga yetgan, ya'ni raqamli xizmatlarga kirish ancha sezilarli darajada bilingan. 2012-2025-yillarda esa internet penetratsiyasi oshib, 94,2%ga yetdi. Bu o'sish ta'lim, davlat xizmatlari, biznes va kundalik hayotda internetdan foydalanishni kengaytirilishidan dalolat beradi [14]. 2020-2023-yillarda O'zbekistonda mobil telefon abonentlarid soni va mobil internetdan foydalanish ulushi ortdi. 2022-yilda internet foydalanuvchilarining 91,3% mobil telefon orqali internetga ulanadi deb qayd etilgan. Mobil aloqa abonentlarining har 100kishiga tog'ri keladigan ulushi 2018-2023-yillarda ortib bordi, bu esa raqamli ulanish imkoniyatlarini yaxshilanganini ko'rsatadi. 2025-yilda O'zbekistonda mobil internet tezligi o'rtacha 55,5Mbps, statsionar internet esa 86,7Mbpsga yetdi. Bu o'sish ta'limni raqamlashtirish, ish va tijorat sohaslarida samarali raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kuchaytirmoqda [15].

CONCLUSION (XULOSA)

O'zbekistonda 2020-yildan boshlab amalga oshirilgan raqamlashtirish siyosati nafaqat texnologik infratuzilmani, balki ta'lim va iqtisodiyot tizimini ham tubdan o'zgartirdi. Internet qamrovining keskin oshishi, mobil aloqa va internet tezligining yaxshilanishi hamda IT xizmatlar ulushining ortishi: Ta'lim sohasida masofaviy ta'lim platformalarini rivojlantirish, elektron resurslardan foydalanish va bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi. Iqtisodiyotda elektron tijorat, raqamli xizmatlar va IT sohasining kengayishi orqali yangi ish o'rinlari yaratildi hamda mehnat bozori zamonaviy ko'nikmalarga

imkoniyati oshib, vaqt va xarajatlar qisqardi. Umuman olganda, jadvaldagi indikatorlar raqamli transformatsiya jarayoni iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lganini tasdiqlaydi. Kelajakda raqamli texnologiyalarni ta'lim va iqtisodiyotga chuqur integratsiya qilish mamlakatning raqobatbardoshligini yanada oshiradi.

REFERENCES (FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI):

- [1] World Bank, *Digital Development Overview 2023*. Washington, DC, USA: World Bank, 2023.
- [2] UNESCO, *Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education*. Paris, France: UNESCO, 2023.
- [3] OECD, *Digital Education Outlook 2023*. Paris, France: OECD Publishing, 2023.
- [4] International Telecommunication Union (ITU), *Measuring Digital Development: Facts and Figures 2024*. Geneva, Switzerland: ITU, 2024.
- [5] United Nations Development Programme (UNDP), *Human Development Report 2022/2023*. New York, USA: UNDP, 2023.
- [6] European Commission, *Digital Economy and Society Index Report 2023*. Brussels, Belgium: European Commission, 2023.
- [7] Asian Development Bank (ADB), *Digital Transformation in Education*. Manila, Philippines: ADB, 2022.
- [8] O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, *Yillik hisobot 2024*. Toshkent, O'zbekiston, 2024.
- [9] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, *Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi*, 2020.
- [10] O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, *Axborot jamiyati ko'rsatkichlari 2024*. Toshkent, 2024.
- [11] World Economic Forum, *The Future of Jobs Report 2023*. Geneva, Switzerland: WEF, 2023.
- [12] McKinsey Global Institute, *The Economic Potential of Digital Transformation*. 2023.
- [13] Deloitte, *Digital Education and Skills Report 2024*. London, UK: Deloitte Insights, 2024.
- [14] S. Khan and M. Abdullah, "Impact of Digital Learning Platforms on Economic Growth," *Journal of Education Economics*, vol. 15, no. 2, pp. 45–60, 2022.
- [15] J. Smith, *Digital Inequality and Education Access in Developing Countries*. Cham, Switzerland: Springer, 2023.